**QASHQADARYO VILOYATI QAMASHI TUMANI HOKIMINING**
# QARORI

2024-yil 15-avgust 269-4-58-Q/24 Qamashi tuman hokimligi

**Qamashi tumani hokimligining 2024-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida**

Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi toʻgʻrisida” gi PF 37-sonli Farmonida belgilangan vazifalar, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari ijrosini hamda hokimlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning toʻlaqonli bajarilishini taʼminlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2024 yil 22-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 77/49-son bayoni hamda viloyat hokimining 2024-yil 5-avgustdagi “Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-4-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligining 2024-yil II yarim yilligi uchun ish rejasi ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagi muhim hujjatlar ijrosini ta’minlash tuman hokimi o‘rinbosarlari, tuman hokimligi apparati bo‘limlari, tumandagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib belgilansin:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-sonli qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli farmoni;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-martdagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari faoliyati

samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-49-sonli farmoni;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida Vazirlar Mahkamasi komplekslari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan 2023-yil yakunlari hamda 2024-yilda bajariladigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishlarida berilgan topshiriqlar;

- hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha 2024-yil birinchi yarim yilligi tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar to‘g‘risidagi videoselektor yig‘ilishda berilgan topshiriqlar; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-sonli farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Edo.ijro.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi

PQ-5132-sonli qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil II yarim yillik uchun ish rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik

apparati tarkibiy bo’linmalari rahbarlari, tuman tashkilotlari rahbarlari bilan birgalikda:

- tuman hokimligining 2024-yil II yarim yilligi uchun ish rejasining bajarilishini ta’minlash;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlari, viloyat hokimligining topshiriqlari bajarilishini ta’minlashda ijro intizomiga qat’iy rioya qilish va uni yanada mustahkamlash;

- “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash

yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq:

- “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2024 yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish;

- “Yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan amaliy tadbirlar rejalarini tasdiqlash.

- “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirish doirasida 2024-yil uchun belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga o‘z vaqtida, to‘laqonli va sifatli erishilishini ta’minlash, tuman hokimi o‘rinbosarlarining bu boradagi mas’uliyati va shaxsiy

javobgarligini oshirish hamda faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish maqsadida mutasaddi rahbarlar faoliyatining eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlari (KPI), samaradorlik koʻrsatkichlariga erishish boʻyicha “yoʻl xaritalar” hamda mutasaddi rahbarlar qoʻshimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e’tiborni qaratgan holda tashkilotlar hamda tuman hokimining 2024-yil II yarim yilligi uchun ish rejalarini tasdiqlash. Tuman hokimligining 2024 yil II yarim yillikka moʻljallangan ish rejasi talablariga qat’iy rioya etilsin.

a) 2024-yil 10-avgustga qadar - tegishli tashkilotlar, idoralar, 2024-yil II yarim yillik ish rejalarini tartibga solish boʻyicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilsin;

b) doimiy va tizimli asosda - hokimliklar apparati va idoraviy mansub tarkibiy boʻlinmalarda ijro intizomining holatini tanqidiy oʻrganib chiqilishini (ishlab chiqilgan reja-jadvalga muvofiq) ta’minlash;

d) 2025-yil 15-yanvarga qadar tuman hokimligi apparatining tegishli tarkibiy boʻlimlariga 2024-yil II yarim yilligi ish rejasining bajarilishi toʻgʻrisidagi tahliliy ma’lumotlarni taqdim etish topshirilsin.

5. Tuman hokimining oʻrinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy boʻlinmalari rahbarlariga:

- tuman hokimi va uning oʻrinbosarlari rahbarlik qiladigan amaldagi komissiyalar (kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) faoliyatini, ularning maqsadli vazifalarini oʻz vaqtida va toʻliq hajmda bajarilishini tashkil qilish;

- yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi (edo.ijro.uz) orqali kelib tushgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini oʻz muddatida sifatli va toʻliq amalga oshirilishini ta’minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq toʻgʻri rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor qaratish;

- 2024-yil II yarim yillik ish rejasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumat, viloyat hokimi topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish, komplekslar tarkibiga kiruvchi boshqarma, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlarining ishlari rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejalari tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish choralarini koʻrish.

6. Tuman hokimligi ijro intizomi nazorati boʻyicha bosh mutaxassisi (D.Xasanov): Viloyat hokimligiga 2025-yil 15-yanvarga qadar 2024-yil II yarim yillik ish rejasining bajarilishi toʻgʻrisidagi axborotni va 2025-yil I yarim yillik ish rejasi loyihasi yuzasidan takliflarni taqdim etsin.

7. Belgilab qoʻyilsinki, tuman hokimining oʻrinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy boʻlimlari rahbarlari ish rejada belgilab qoʻyilgan vazifa va masalalarning oʻz vaqtida toʻliq bajarilishini ta’minlash boʻyicha shaxsan mas’uldirlar.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosarlari, tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisi (D.Xasanov) zimmalariga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **X.Usmonov**

Qamashi tuman hokimining
2024-yil 15-avgustdagi
269-4-58-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘ining 2024-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan**

**ISH REJASI**

| № | Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi. | Ijro muddati | Masullar: Tuman hokimligi, hududiy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari. |
|---|---|---|---|
| Ia. 2024-yil II-yarim yillikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar | | | |
| 1 | Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, ijorat banklari rahbarlarining 2024-yil I- yarim yillikda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i huzurida tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirishi bo‘yicha hisobotlarida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar |
| 2 | Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2023yillarda Qashqadaryo viloyatiga tashriflari yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonlardagi 2024-yil I- yarim yillikda bajarilishi lozim bo‘lgan nazorat bandlarida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari rahbarlik qiladigan idoralararo kollegial organlar (komissiya, kengash) da belgilangan vazifalarning oʻz vaqtida va sifatli bajarilishini taʼminlash. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar |
| 4 | Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari boʻyicha 2022-2023-yillarda tasdiqlangan "Yoʻl xaritalari"dagi 2024yil II-yarim yillikda bajarilishi lozim boʻlgan nazorat bandlarida belgilangan vazifalarning oʻz vaqtida va sifatli bajarilishini taʼminlash | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar. |
| 5 | 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasining 2024-yilgi Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarni amalga oshirish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| 6 | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samaraln tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmonida belgilangan vazifalarning oʻz vaqtida va sifatli bajarilishini taʼminlash. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| 7 | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat koʻrsatishini taʼminlashga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning oʻz vaqtida va sifatli bajarilishini taʼminlash. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 8 | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatga tashriflari yakunlari boʻyicha tasdiqlangan bayonnomaning kotibiyatga biriktirilgan boʻlim va tijorat banklari hamda boshqa tashkilotlarda bajarilishini taʼminlash. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| 9 | Tumanda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari toʻgʻrisida"gi 2021-yil 3-dekabrdagi PF 29-sonli qaroridagi topshiriqlari bajarilishini taʼminlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari, tuman Kambagʻalikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi, tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi |
| 10 | Tumanda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 2021-yil 3-dekabrdagi PQ-31-sonli qaroridagi topshiriqlari bajarilishini taʼminlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari, tuman Kambagʻalikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi, tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 11 | Tumanda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ 39-sonli qarorning ijrosi qaroridagi topshiriqlari bajarilishini taʼminlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boʻlimi. |
| 12 | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-yanvardagi “Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 15-son qarorida berilgan topshiriqlarni bajarilishini taʼminlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov Tuman Savdo sanoat palatasi |
| 13 | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 465-sonli qaroridagi topshiriqlarni bajarilishini taʼminlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| 14 | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish oʻrinlarini tashkil etish va aholi bandligiga koʻmaklashish dasturi toʻgʻrisida”gi PQ-7-son qarori doirasida ishlarni tashkil etish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| **Ib. 2024-yil I-yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish boyicha takliflari** | | | |
| **Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida** | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning viloyatga tashriflari davomida viloyatni rivojlantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| 2 | • Tumanda 2024-yil uchun asosiy makroqtisodiy koʻrsatkichlar prognozini ishlab chiqish, Bunda<br>• Iqtisodiy oʻsish darajasining oʻrtacha 6,5 foizdan yuqori boʻlishini; • Inflatsiyaning 2024-yildan 5 foiz target koʻrsatkichi darajasida ushlab turish;<br>• Pul-kredit, budjet-soliq siyosatlari va tarkibiy islohotlarni oʻzaro muvofiqlashtirish; | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| **II. 2024-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish boʻyicha koʻrilayotgan choralar natijadorligi tahlillari** | | | |
| 1 | Belgilangan soliq tushumi prognozlari doirasida tushumlar tushishini hamda qoʻshimcha manbalar aniqlanishi va davlat budjetiga undirilishi boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning 2024yil II yarim yilligida bajarilishini tahlil qilish | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| 2 | Sotib olingan davlat aktivlarining ishga tushirilishi, investitsiya majburiyatlari bajarilishi va yangi ish oʻrinlari yaratilishini tahlil qilish | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari. |
| 3 | Bank tizimida yuzaga kelgan muammoli kreditlarning tizim barqarorligiga taʼsiri va muammoli kreditlarni kamaytirish yuzasidan tijorat banklari hamda mahalliy hokimliklar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | bank rahbarlari |
| 4 | 2024-yil II yarim yilligida har bir tuman va shaharda 2024-yilgi koʻrsatkichdan kam boʻlmagan miqdorda tadbirkorlik subektlari tashkil etilishini tahlil qilish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| **III. Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari ijrosini maqsadli oʻrganish va natijasini kengaytirilgan yigʻilishlarda koʻrib chiqish** | | | |
| 1 | Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari ijrosini maqsadli oʻrganish va ijrosini taʼminlash borasida barcha choralarni koʻrish hamda tegishli masʼullar bilan muhokama etish. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari tegishli boshqarmalar va |
| **IV. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosini maqsadli oʻrganish** | | | |
| 1 | Tumanda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbekiston Respublikasining milliy statistika tiziminin yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 2020-yil 3-avgustdagi PQ 4976-son qaroriga muvofiq, belgilangan vazifalarning ijrosini taʼminlash. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| 2 | Tumanda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyatini samaradorligini oshirish boʻyicha tashkiliy chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son qaroriga muvofiq, belgilangan vazifalarning ijrosini taʼminlash. | Har chorakda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | Tumanda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2022-yil 27-yanvardagi PQ 104 son qaroriga muvofiq belgilangan vazifalarning ijrosini taʼminlash. | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |
| 4 | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qoʻllabquvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida”gi PF-37-son Farmonida belgilangan yoʻnalishlarni ijrosini taʻminlash boʻyicha ishlarni tashkil qilish | II yarim yillikda | U.Ibragimov. Tumandagi tegishli korxona va tashkilotlar, aloqador idoralar, tuman tijorat bank rahbarlari |

Qamashi tuman hokimining
2024-yil 15-avgustdagi
269-4-58-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyatining 2024-yil I yarim yillikka mo‘ljallangan**

**ISH REJASI**

| **№** | **Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.** | **Ijro muddati** | **Mas'ullar:** |
|---|---|---|---|
| **I. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar** | | | |
| **1.** | “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | **II yarim yillikda** | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **2.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o‘tkazilgan majlislar yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi qurilish sohasidagi topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **3.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizmi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta'minlashgaa qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qaroridan kelib chiqadigan qurilish sohasidagi vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **II. 2024-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha takliflari** | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1.** | 2024-yil investitsiya dasturiga asosan viloyat hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DUK buyurtmachiligida 5 ta ijtimoiy va infratuzilma obyektida 89 mlrd so‘mlik qurilish-ta'mirlash ishlarini yil yakuniga qadar foydalanishga topshirish. | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **2.** | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi davlat muassasasi shaklida Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi buyurtmachiligidagi 5 ta shundan, 2 ta maktabgacha ta‘lim va 3 ta umumta‘lim muassasalarida qurilish ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish. | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **Uy-joylar bo‘yicha.** | | | |
| **1.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-dekabdagi 221-sonli yig‘ilish bayoniga asosan Uy-joyga talab yuqori bo‘lgan boshqa hududlardan qurilishi davom etayotgan 3 ta (60 xonadon) ko‘p qavatli uy- joylarda qurilish ishlarini jadallashtirish. | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **2.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoniga asosan Ekspluatatsiya muddatini o‘tab bo‘lgan hamda seysmik zaifligi va avariya alomatlari aniqlangan ko‘p kvartirali uy-joylarni renovatsiya qilish choralarini ko‘rish, 2024-yil uchun ko‘p kvartirali uy-joylarni renovatsiya qilish bo‘yicha manzilli ro‘yxatni shakllantirish hamda tasdiqlash | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **3.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-fevraldagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoniga asosan 2024-yil uchun uy-joy qurilishi va ipoteka dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. | | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **Elektr energiya ta'minoti bo‘yicha.** | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1.** | Elektr uzatish tarmoqlari, transformator punktlari va podstansiyalarni 2024-2025-yil kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo‘yicha mukammal ta’mirlash ishlari dasturida belgilangan ko‘rsatkichlarni so‘zsiz bajarilishini ta’minlash. | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **Tabiiy va suyultirilgan gaz ta'minoti bo‘yicha.** | | | |
| **1.** | Tabiiy gazdan xavfsiz foydalanishni ta'minlash maqsadida 400 ta gaz regulyatorini o‘rnatish. | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **2.** | 2024-yil birinch I yarim yillikda tabiiy gazdan bo‘lgan debitor qarzdorlikni kamida 15 foizga qisqartirish bo‘yicha barcha zaruriy choralar ko‘rish. | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **Hududiy avtomobil yo‘llarini rivojlantirish bo‘yicha.** | | | |
| **1.** | 2024-yilda jami 40 km tuproq yo‘llarni shag‘allashtirish. | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **2.** | “Open budjet” dasturi doirasida 2024-yil 1-mavsumi uchun 16,25 mlrd so‘m ichki yo‘llarni ta’mirlash ishlariga yo‘naltirish hamda qurilish ishlarini yakunlash | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha** | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1.** | 2024-yil bahor va kuz mavsumlarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 1,4 mln dona manzarali mevali daraxt ko'chatlari, buta va terak qalamchalarini ekish. Shundan bahor mavsumiga 731 ming dona, kuz mavsumida 669 ming dona. | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |
| **Sanitar tozalash bo'yicha** | | | |
| **1.** | 2024-yilda debitor qarzdorlikni qisqartirish bo'yicha tarmoq jadvali ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash. Qamashi tumanida sanitar tozalash ishlari bo'yicha shartnoma tuzishdan bosh tortgan yuridik tashkilotlar bilan profilaktik tadbirlar o'tkazish. | II yarim yillikda | Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi R.Boymirzayev, yetakchi mutaxassisi D.Xushvaqtov |

Qamashi tuman hokimining
2024-yil 15-avgustdagi
269-4-58-Q/24-son qaroriga
3-ilova

**Qamashi hokimining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari kotibiyatining 2024-yil II yarim yillikka moʻljallangan ISH REJASI**

| T/r | Ustuvor vazifalar. Oʻrganiladigan masalalar mavzusi. | Ijro muddati | Masʼullar: Tuman tashkilot rahbarlari, tuman hokimligi bosh mutaxassisi |
|---|---|---|---|
| 1 | Aholi tomorqalarida 5 ming gektar maydonda toʻqsonbosti ekinlarini ektirishni tashkil etish boʻyicha tuman hokimligi bilan birgalikda dasturlar ishlab chiqib, ekishni tashkil qilish. | Mavsum davomida | Tuman Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 2 | Tumanda 2024-yilda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish, naslchilik ishlarini tashkil etish, chorva mollari mahsuldorligini oshirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini koʻpaytirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. | Sentabr | Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boʻlimi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 3 | Paxta va gʻalla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xoʻjaliklarini mineral oʻgʻitlar va oʻsimliklarni himoya qilish kimyoviy vositalari bilan taʼminlash boʻyicha amalga oshirilayotgan choratadbirlarni tahlil qilish. | agrotexnik muddatlarda | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, tuman Oʻsimliklar karantini va himoyasi boʻlimi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4 | "Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak uchun poydevor" gʻoyasi asosida hududlarda barcha toifa xoʻjaliklarida shundan fermer xoʻjaliklarining ochiq maydonlariga, fermer xoʻjaliklarida bogʻ qator orasi va aholi tomorqalariga "toʻqsonbosti" usulida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ekish ishlarini tashkil qilish. | Mavsum davomida | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, Qishloq xoʻjaligida xizmatlar koʻrsatish agentligi tuman boʻlimi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 5 | Fermer xoʻjaliklari dala maydonlaridagi ariq, kanalarni betonlashtirish va agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish orqali sugʻorishda suv resurslarini iqtisod qilish va takroriy ekinlarni suv bilan taʼminlash choralarini koʻrish. | Mavsum davomida | Suv yetkazib berish xizmati DM tuman bo'limi |
| 6 | Fermer va qishloq xoʻjaligi korxonalari dala chetlariga mevali, uzum tut va manzarali koʻchatlar hamda qishloq xoʻjaligi ekinlari ekiilishini tashkil etish. | Oktabr-noyabr | Tuman Qishloq xoʻjaligi bo'limi, Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Qishloq xoʻjaligida xizmatlar koʻrsatish agentligi tuman boʻlimi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 7 | Tumanda 2024-yil kuzgi dala ishlarida qatnashadigan qishloq xoʻjaligi texnikalarini mavsumga tayyorlash ishlarini tashkil etish. | Avgust-sentabr | Tuman Qishloq xoʻjaligi bo'limi, Agroisnpeksiya tuman bo'limi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 8 | Tuman hududlaridagi mavjud bogʻ-tokzorlarga agrotexnik tadbirlarni oʻz vaqtida sifatli oʻtkazilishini tashkil qilish. | Mavsum davomida | Qishloq xoʻjaligi bo'limi, Qishloq xoʻjaligida xizmatlar koʻrsatish agentligi tuman boʻlimi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 9 | Chorva ozuqa bazasini mustahkamlash uchun 3 ming 900 gektar ozuqa maydonlarining silos uchun makkajoʻxori, 420 gektarga xashaki tariq, gʻalladan boʻshagan yer maydonlariga takroriy makajo'xori silos uchun ming 3.9 gektar kuzgi oraliq ozuqa ekinlariga agrotexnik tadbirlar oʻtkazish. | Mavsum davomida | Tuman Qishloq xoʻjaligi bo’limi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo’limi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 10 | Yaylov xoʻjaligini rivojlantirish uyushmasi tizimidagi qorakoʻlchilik subyektlarida mayda shoxli mollar parvarishi va bosh sonlarini koʻpaytirish, belgilangan vazifalar ijrosi hamda choʻl-yaylov ozuqabop ekinlar urugʻchiligini rivojlantirish ishlarining holatini oʻrganish. | Mavsum davomida | Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish bo’limi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 11 | Agrar sohani zamonaviy qishloq xoʻjaligi texnikalari bilan taʼminlash boʻyicha chora-tadbirlar dasturini qabul qilish. Bunda:<br>agrar sohani zamonaviy qishloq xoʻjaligi texnikalariga boʻlgan talabni aniqlash.<br>Bunda, texnika taʼminoti past boʻlgan chorvachilik, sabzavot va polizchilik, bogʻdorchilik va uzumchilik yoʻnalishlarini rivojlantirishga alohida ustuvorlik berish; qishloq xoʻjaligi texnikalarini mahalliylashtirish darajasini | Oktabr-noyabr | Tuman Qishloq xoʻjaligi bo’limi, “Agrolizing” aksiyadorlik jamiyati tuman filiali, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | oshirish;<br>agroklasterlar va fermer xoʻjaliklariga texnikalarni qulay kredit va lizing shartlari asosida yetkazib berish hamda kafolatli servis xizmatlarini tashkil etish. | | |
| 12 | Hosildorlik koʻrsatkichlarini paxta boʻyicha oʻrtacha 45-50 sentnerga, gʻalla boʻyicha 80-100 sentnerga yetkazish maqsadida paxta va gʻallaning ekinlari hosildorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. | Oktabr-noyabr | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 13 | Ichki isteʼmol bozorlarida asosiy turdagi oziq-ovqatlar va qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga narx-navolarning barqaror saqlanishini taʼminlash boʻyicha koʻrilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish. | I I yarim yillikda | Tuman tashkilot va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 14 | Dehqon xoʻjaliklari yerlari va tomorqa yerlaridan samarali foydalanish boʻyicha tumanlar hokimliklari rahbarlari tomonidan koʻrilayotgan chora-tadbirlar natijadorligini tahlil qilish. | har oyda | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, Kadastr agentligi tuman boʻlimi, tuman tijorar bank boʻlimlari, Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 15 | Tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga asosan qishloq xoʻjalik mahsulotlarini yetishtirish boʻyicha ishlab chiqaruvchilarni moliyalashtirish holatini tahlil qilish. | har oyda | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, tuman tijorar bank boʻlimlari, Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 16 | Tumanda foydalanishdan chiqib ketgan 1 ming gektar yerlarni<br>2024-yilda oʻzlashtirish hamda eksportbop mahsulotlarni yetishtirish ishlarini tashkil etilishini tahlil qilish. | Mavsum davomida | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, Suv yetkazib berish xizmati DM tuman boʻlimi, Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 17 | 2024-yilda kam hosilli va yaroqsiz bogʻlar oʻrnida zamonaviy intensiv bogʻlar tashkil etilishini tahlil qilish. | Oktabr-noyabr | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 18 | 2024 йил ҳосили учун экилган пахта ҳосилини нес-нобут қилмасдан йиғим терим ишларини ташкил қилиш. | Mavsum davomida | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi,MFY raislari, Fermer xoʻjaliklari rahbarlari, Paxtachilik klasterlari , tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 19 | Oʻsimliklarning karantin va boshqa zararkunandalari, kasalliklar va begona oʻtlarning tarqalishini monitoring qilish va prognozlashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini tahlil qilish. | Mavsum davomida | Oʻsimliklari karanti va himoyasi boʻlimasi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 20 | Oʻrmon fondi yerlarini jismoniy va yuridik shaxslarga ijara, investitsiyaviy shartnoma asosida samarasiz maydonlarni foydalanishga kiritish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili. | Mavsum davomida | Qamashi davlat Oʻrmon xoʻjaligi boʻlimasi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 21 | Oʻrmon fondi yerlarida oʻrmon barpo etish hajmlarini | Mavsum davomida | Qamashi davlat Oʻrmon xoʻjaligi boʻlimasi, tuman |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | koʻpaytirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish. | | hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 22 | Oʻrmon fondi yerlarida aholining yongʻoq, meva mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojini qondirish hamda yangi ish oʻrinlari yaratish maqsadida yongʻoq mevali (pista, bodom, yongʻoq) plantatsiyalar barpo etish boʻyicha amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish. | Mavsum davomida | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, Qamashi davlat Oʻrmon xoʻjaligi boʻlimasi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 25 | Chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik va baliqchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar, investitsiya loyihalari va yoʻl xaritalari ijrosini tahlil qilish. | Mavsum davomida | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boʻlimi, tuman tijorat banklari, Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 26 | 2025 yil gʻalla hosili uchun gʻalla ekishga yer tayyorlash va ekish ishlarini tashkil qilish. | Mavsum davomida | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, Gʻallachilik klaster rahbari, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |
| 27 | Gʻalladan boʻshagan maydonlarga takroriy ekin сифатида экилган экинларга агротехник тадбирларни амалга ошириш. | Mavsum davomida | Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 28 | Tuman hokimining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari H.Azizov rahbarligida tegishli tashkilotlarning sohani isloh qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda ijro intizomini mustahkamlash boʻyicha koʻrilayotgan choralarni muhokama qilish.<br><br>Har haftada barcha darajadagi topshiriqlar ijrosi va "ijro.gov.uz" tizimidagi topshiriqlarning bajarilish holati boʻyicha har bir idora rahbarlarining ijro intizomini mustahkamlash boʻyicha hisobotini eshitish tizimini davom ettirish. | har haftada | Tuman, tashkilot va korxonalar, tuman hokimligi bosh mutaxassisi E.Xolmoʻminov |

Qamashi tuman hokimining
2024-yil 15-avgustdagi
269-4-58-Q/24-son qaroriga
4-ilova

**Qamashi tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari kotibiyatining 2024-yil II yarim yillikka moʻljallangan**

**ISH REJASI**

| T/r | Ustuvor vazifalarni amalga oshirish yuzasidan bajariladigan ishlar | Bajarish muddati | Mas'ullar |
|---|---|---|---|
| 1. | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevmng 2022-yil 20-dekabrdagi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida ijtimoiy majmuaga tegishli vazifalarni oʻz vaqtida va sifatli amalga oshirish. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** barcha ijtimoiy soha tashkilot rahbarlari |
| 2. | **“2024-yil “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili”** Davlat dasturi loyihasiga takliflar berish va Dastur qabul qilingandan soʻng ijtimoiy majmuaga tegishli bandlari ijrosini oʻz vaqtida ta' minlash. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** barcha ijtimoiy soha tashkilot rahbarlari |
| 3. | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, farmoyish, qaror va majlis bayonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident Administratsiyasi topshiriqlarini oʻz vaqtida ijrosini ta'minlash va nazoratga olish. | Doimiy | **A.Qulmurodov** |
| 4. | Ota-onalar bilan ta'lim muassasasi oʻrtasida hamkorlikning samarali yoʻlga qoʻyish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosari raisligida, psixolog, Yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar qoʻmitasi, kasaba uyushma qoʻmitasi tomonidan jinoyat sodir etishga moyil, notinch oila farzandlari va ularning ota-onalari bilan alohida tarbiyaviy ishlarni olib borish. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** Barcha ijtimoiy soha tashkilot rahbarlari |
| 5. | Tuman boʻyicha 2024/2025 oʻquv yili uchun mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda tumandagi 3 ta kasb-hunar maktabiga qabul parametrlarini shakllantirish;<br>Tumandagi professional ta’lim muassasalari oʻquvchi yoshlarining boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tanlovlar va sport musobaqalarini oʻtkazish. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** tegishli ijtimoiy soha tashkilot rahbarlari |
| 6. | - Sport maktablariga **4 yoshdan 30 yoshgacha** boʻlgan sport bilan<br>muntazam shugʻullanish va kelgusida professional sportchi boʻlish maqsadidagi bolalar va yoshlarni qabul qilish boʻyicha ishlarni | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** sport maktablari, Yoshlar ishlari boʻlimi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | muntazam amalga oshirish. | | |
| 7. | Har bir umumiy o‘rta ta' lim maktabida futbol, basketbol, voleybol, gandbol va boshqa jamoaviy o‘yin turlari bo‘yichajamoalar tuzish hamda muntazam ravishda maktab jamoalari o‘rtasida musobaqalarni o‘tkazib borish orqali yoshlarni sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** sport maktablari, maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi |
| 8. | Maktabgacha ta' lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish;<br>2024-yil yakuniga qadar 3-7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktabagacha ta' limiga qamrovini **66,2 foizga**;<br>Jumladan, 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini **92 foizga** yetkazish. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi |
| 9. | Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi |
| 10. | Umumta’lim maktablari kasb-hunarga o‘rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish;<br>Milliy o‘quv dasturiga asosan yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish va yetakchi xalqaro nashriyotlardan eng sara darslik va kitoblarni belgilangan tartibda xarid qilish;<br>maktab o‘qituvchilarini belgilangan xalqaro standartlar asosida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta' minlash;<br>tuman bo‘yicha 2024-yilda maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish ko‘rsatkichini 32 foizga yetkazish;<br>xorijiy tillarni o‘qtishni takomillashtirish; | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi |
| 11. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-son farmoni ijrosini ta' minlash. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** tuman tibbiyot birlashmasi |
| 12. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi “Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g'risida”gi PQ-4887-son qarori ijrosini ta' minlash. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** tuman tibbiyot birlashmasi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 13. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g'risida”gi PQ-4891-son qarori ijrosini ta'minlash. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** tuman tibbiyot birlashmasi |
| 14. | Viloyat sog'liqni saqlash bo‘limi *(sog'liqni saqlash tizimiga oid barcha tashkilot va muassasalar bilan birga)* faoliyatini muvofiqlashtirib borish. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** tuman tibbiyot birlashmasi |
| 15. | O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 26-apreldagi “Sanitariya-epidemiologiya xizmati takomillashtirishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g'risida”gi O‘RQ-685-son Qonunning ijrosini ta'minlash. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tuman bo‘limi |
| 16. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi PQ-4790-son qarori ijrosini ta'minlash. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tuman bo‘limi |
| 17. | Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini ta' minlash. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tuman bo‘limi |
| 18. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6260-son farmonida belgilangan vazfilarning sifatli bajaralishini ta’minlash;<br>“Tashabbusimiz, iqtidorimiz, kuch-qudratimiz - Vatan uchun” shiori doirasida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan jamoaviy madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlari o‘tkazish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** Yoshlar ishlari bo‘limi Yoshlar ittifoqi, “Yoshlar kelajagimiz” jamg'armasi |
| 19. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin qizlar bilan ishlash tizimini yangi | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** Yoshlar ishlari bo‘limi, “Yoshlar kelajagimiz” |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi PF-5938-son farmonida belgilangan ustivor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash. | | jamg‘armasi |
| 20. | “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, ularga berilgan yordamlarning haqqoniyligini o‘rganish, berilgan imtiyozlarni manzilli qo‘llab quvvatlash choralarini ko‘rish;<br>Har bir xonadon va mahalla kesimida yoshlarning muammolarini o‘rganish bo‘yicha “Yoshlar balansi”ni shakllantirish uchun amaliy chora-tadbirlarni belgilash;<br>Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, g'oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Yoshlar festivallarini yuqori saviyada tashkil etish o‘tkazish;<br>Yoshlarning bilim va kasb-hunar egallashi, ular uchun munosib ish va turmush sharoitini yaratish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish;<br>Yoshlarimiz **“IT”** sohasi bo‘yicha o‘qitib, yuqori daromad topish imkoniyatini yaratish;<br>Taniqli yozuvchi, shoirlar, olimlar, ziyolilar ishtirokida turli ilmiy anjumanlar, ma' naviy-ma' rifiy tadbirlarni tashkil etish, yoshlarning ilg‘or g‘oyalarini targ‘ib qilish, faol ishtirok etgan yoshlarni ijtimoiy va moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy tarmoqlar, OAVda yoritib borish. | II yarim yil davomida | **A.Qulmurodov,** Yoshlar ishlari bo‘limi, “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi |
| 21. | **“Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to‘g'risida"**gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq fuqarolar hamda yuridik shaxslarning shikoyat va arizalarini ko‘rib chiqilishini tahlil qilib borish. | Doimiy | **A.Qulmurodov,** Barcha ijtimoiy soha tashkilot rahbarlari |
| 22. | **“E-IJRO *(ijro.gov.uz)*”** orqali kelib tushgan har bir topshiriqlarni tegishli ijtimoiy majmua tashkilotlari bilan birgalikda, ijrosini ta’minlab borish. | Doimiy | **A.Qulmurodov,** Barcha ijtimoiy soha tashkilot rahbarlari |

Qamashi tuman hokimining
2024-yil 15-avgustdagi
269-4-58-Q/24-son qaroriga
5-ilova

**Tuman hokimining oʻrinbosari – investitsiyalar va tashqi savdo boʻlimi boshligʻining 2024-yil II-yarim yillik**

**ISH REJASI**

| **№** | **Ustuvor vazifalar.** | **Ijro muddati** | **Mas'ullar** |
|---|---|---|---|
| **I. "Oʻzbekiston - 2030" strategiyasi va uni amalga oshirish boʻyicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga moʻljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar** | | | |
| 1 | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida" 2023-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonida belgilangan investitsiyalar sohasiga oid vazifalarni oʻz vaqtida va sifatli amalga oshirish. | II-yarim yillik mobaynida | Investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi Ma'sul idora va tashkilotlar. |
| 2 | Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin va oʻzoq muddatli istiqbolga moʻljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan vazifalarni sifatli amalga oshirish. | II yarim yillik mobaynida | Investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi Ma'sul idora va tashkilotlar. |
| 3 | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika hududlariga tashriflari yakunlari boʻyicha tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlarni soʻzsiz va sifatli bajarish. | II yarim yillik mobaynida | Investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi Ma'sul idora va tashkilotlar. |
| 4 | Kotibiyatga biriktirilgan vazirliklar, davlat qoʻmitalari, idoralar va shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida oʻtkazilgan yigilish bayonnomalari topshiriqlarini soʻzsiz va sifatli bajarish. | II yarim yillik mobaynida | Investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi Ma'sul idora va tashkilotlar. |
| 6 | Eksport hajmini oshirish, yangi ishga tushgan korxonalarni eksportga jalb qilish, yangi mahsulotlar va tashqi bozorlarni oʻzlashtirish choralarini koʻrish. | II yarim yillik mobaynida | Investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi Ma'sul idora va tashkilotlar. |
